



2021-j. «18» *abryam*

№ *02-02/05-3713*

«\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2021 r.

### Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 25 maydagi "Sog'liqni saqlash sohasini kompleks rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5124-sonli qarorining 3 bandi bilan Sog'liqni saqlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni tezlashtirish bo'yicha «Yo'l xaritasi» tasdiqlandi.

Tasdiqlangan Yo'l xaritaning 21 bandida "Umumta'lim maktablarining oshxonalari davlat-xususiy sheriklik asosida oshxona yoki bufet qurish, ta'mirlash va jihozlash, hududda oshxona faoliyati yo'lga qo'yilmagan maktablarda sog'lom ovqatlanishni tashkil etish, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning farzandlari (o'quvchilar) uchun imtiyozli shartlarda ovqatlanishini ta'minlash, oshpazlik kasbiga ega bo'lgan hududda ishsiz bo'lgan fuqarolarni ish bilan ta'minlash bo'yicha topshiriqlar berilgan.

Shuningdek, 2021 yilda yagona tanlov o'tkazish orqali davlat-xususiy sheriklik asosida umumta'lim maktablari oshxonalarini ijaraga berish bo'yicha hududlardan bittadan, ya'ni Nukus shahridagi umumta'lim maktablari oshxona va bufetlarining ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligiga taqdim qilindi (ro'yxat ilova qilinadi).

Shu bilan birga, umumta'lim maktablari oshxonalarini har bir hududdan bittadan, 2022 yildan boshlab, bosqichma-bosqich tuman (shahar)lar miqyosida yagona tanlov o'tkazish orqali davlat-xususiy sheriklik asosida investisiya va ijtimoiy majburiyatlar yuklangan holda ijaraga berishi ko'rsatilgan.

2021 yilda yagona tanlov o'tkazish orqali davlat-xususiy sheriklik asosida umumta'lim maktablari oshxonalarini ijaraga berish bo'yicha hududlardan bittadan, ya'ni Nukus shahridagi umumta'lim maktablari oshxona va bufetlari qayta tanlov ososida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligiga taqdim qilindi va vazirlikning [info@xtv.uz](mailto:info@xtv.uz) hamda [gchpmno@gmail.com](mailto:gchpmno@gmail.com) saytlariga joylashtirildi.

Shu bilan birga, umumta'lim muassasalarida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etishni yanada takomillashtirishga qo'yilgan talablari belgilandi.

Umumta'lim maktablarida davlat-xususiy sheriklik asosida oshxona yoki bufet qurish, ta'mirlash va jihozlash, hududda oshxona faoliyati yo'lga qo'yilmagan maktablarda sog'lom ovqatlanishni tashkil etish, ijtimoiy himoyaga



muhtoj oilalarning farzandlari (o'quvchilar) uchun imtiyozli shartlarda ovqatlanishini ta'minlash, oshpazlik kasbiga ega bo'lgan hududda ishsiz bo'lgan fuqarolarni ish bilan ta'minlash maqsadida umumta'lim maktablari o'quvchilarini issiq va sifatli oziq-ovqat bilan ta'minlash, oshxona va bufetlari mavjud bo'lmagan umumta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasi holatidan kelib chiqib tashabbuskor tadbirkorlik sub'ektlariga investisiya va ijtimoiy majburiyatlar yuklangan holda 10 yil muddatgacha davlat-xususiy sheriklik asosida berish bo'yicha loyiha amalga oshirilishi ko'zda to'tilgan.

Shu munosabati bilan, Xalq ta'limi vazirligi xalq ta'limi tizimidagi oshhonalarni davlat-xususiy sheriklik asosida berish va yangi oshxonalar qurish bo'yicha xususiy sektor vakillarini hamkorlikka chaqirish bo'yicha amalga oshiriladi.

Yuqoridagilarni ma'lumot uchun qabul qilishingizni so'raymiz.

**Vazirning birinchi  
o'rinbosari v.b**



**Q. Bekbauliev**

Ijrochi S. Xabipov  
tel: 97 474 65 65

